

OLIY TA'LIM TALABALARINING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH PARAMETRLARI

A.A.Xasanov¹ 1.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muloqot kompetensiyasi, tafakkur, ong, nutq, harakat sur'ati, idrok etish, shaxslararo munosabat, individual rivojlanish, bo'lajak o'qituvchi.

Xasanov A.A.
Xorijiy tillar
kafedrası
mudiri,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
hasanov.0276@gmail.com

Аннотация: Важно учитывать образ мышления, развитие речи, скорость передвижения, возможности восприятия, уровень системного влияния на культуру межличностных отношений и целенаправленное выяснение параметров развития личности в улучшение возможностей развития коммуникативной компетентности студентов организаций высшего образования.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, мышление, сознание, речь, темп действия, восприятие, межличностные отношения, развитие личности, будущий педагог.

Abstract: It is important to take into account the way of thinking, the development of speech, the speed of movement, the possibilities of perception, the level of systemic influence on the culture of interpersonal relations and the targeted clarification of the parameters of personality development in improving the opportunities for the development of communicative competence of students in higher education organizations.

Key words: communicative competence, thinking, consciousness, speech, pace of action, perception, interpersonal relationships, personality development, future teacher.

Bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar mazmuni o'quv jarayonidagi muammoli masalalarni yechish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini bevosita amalga oshirish, referatlar, kurs ishlari va bitiruv ishlarini himoya qilish, institut, universitetlararo va boshqa konferensiyalar seminarlar, musobaqalarda qatnashishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tafakkur tarzini individual rivojlantirish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish asosida takomillashtiriladi. Tafakkur erkinligi jamiyat va inson erkinligining ma'naviy, intellektual negizidir. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining

alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi [3].

Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'langan holatda asosiy yangilikni qidirish va ochishdan iborat bo'lgan, voqelikni analiz va sintez qilish uni bevosita va umumlashtirib aks ettiruvchi aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayondir. Tafakkur jarayonini qanchalik darajada yuksalishi insonni aqliy va ruhiy jihatdan mukammalroq, teranroq samarali va shu kabi ijobiy amaliy xatti-harakatlarining amalga oshishiga sabab bo'ladi. Ong, tafakkur va nutq faqat insonlargagina xos jarayon bo'lib, aynan mana shular odamni hayvondan ajratib turadi. Tafakkur orqali inson borliqni anglaydi. Sezgi a'zolari yordamida olamni sezadi va idrok qilishni boshlaydi. Tafakkur sabab esa inson ongida g'oya, hukm, fikr mulohazalar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, tafakkur shunday jarayonki, u insonni atrof-muhit umuman borliqqa nisbatan fikr mulohazalarining haqiqat, yolg'on to'g'ri, noto'g'ri, aniq mavhum, eski, yangi, yetarli, yetarli emasligini aniqlashda ham ishtirok etadi.

Nutq - kishilarning ongida mavjud lisoniy imkoniyatlarni og'zaki yoki yozma shakllarda voqelantirilishi. Masalan, aytgan yoki yozgan gaplarimiz nutq bo'lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo'ladi[5].

Nutq - bu til- deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birliklari va gaplardan tashkil topadi. Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning muayyan ko'rinishi ifoda bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq va aniq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatleri bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, fikran aniq, tuzilishga ko'ra chiroyli va yo'nalishiga ko'ra maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi[4].

Oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini harakat sur'atini aniqlashtirish asosida takomillashtirishda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar faoliyatining harakat sur'atiga ahamiyat qaratildi.

Oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini idrok etish imkoniyatini hisobga olish asosida takomillashtirishda talabalarining idrok etish imkoniyatini ko'rib chiqamiz.

Inson mavjud ekan, u o'z hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o'ziga o'zi hisob beradi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish, umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib, idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Nutqning anglangan holda

idrok etilishi, ya'ni u tushunishi uchun nutqning alohida iboralarga mohiyat e'tibori bilan so'zlarga ajratish shartidir. Ayni paytda nutqni idrok etish jarayonida tahlil bilan bab- baravar tarzda sintez qilinadi, shu tufayli biz aloqida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok etamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil qiladi. Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikki turidan, bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Idrok etish-perseptiv psixikaning yuqori darajasidir. Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo'lib, u muloqotning perseptiv tomonini tashkil etadi. Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi, ya'ni subyekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni resipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarini qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa, pedagogik munosabat yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir [7].

Qator tadqiqot ishlarida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish asosida takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Shaxslararo munosabatlar pedagogikaning asosiy o'rganadigan obyektlardan biridir. Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga ta'lluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o'rinda turadi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi globbalashuvi jarayonida shaxs va jamiyat munosabatlari muammosiga e'tibor kuchayib bormoqda. Muloqot mavzuyi va yo'nalishiga ko'ra[6]:

- ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan);
- guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki biror topshiriq bajarish jarayonidagi muloqot);;
- shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini yechish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);
- pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) [6].

Oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli

aniqlashtirish asosida takomillashtirishda individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish masalasini alohida ko'rib chiqish lozim.

Individual rivojlanish parametrlari shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini refleksiv baholash asosida maqsadli aniqlashtiriladi. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish, baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash bu mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi tushuniladi. Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi [1]:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondoshuv asosida olib borish samarali hisoblanadi. Ularning loyihali yondashuv asosida o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi [1].

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmadjonov B.D. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va usullari. //Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 815-825-b.
2. Karimqulova F., Oripova N. Thinking processes and stages of its formation. //Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 215-221-b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi VIII jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti 2008-yil. – B. 774, 299-b.
4. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2015. – 116 b.
5. Raupova L. Nutq madaniyati /darslik/. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019, 138 b.
6. Sabirova N.K. Shaxslararo munosabatlar tushunchasi va muloqot tushunchasi. //Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022. ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-609-613 SJIF: 5, 7 | UIF: 6,1. 609-613-b